



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2022 - yil 27 - yanvar

75-8-0-Q/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlari xizmat uylari
qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga asosan, viloyat Ichki ishlar boshqarmasining 2021-yil 10-iyundagi 3/306-son xati va “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasining 2021-yil 29-oktabrdagi 01-08/2504-son xatini inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlari xizmat uy-joylari qurilishi uchun qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlari ilovaga muvofiq tegishli tuman Ichki ishlar bo‘limiga doimiy foydalanish huquqi bilan ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlari xizmat uy-joylari qurilishi uchun ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e’lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov

zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2022 йил 27 январдаги
75-8-0-Q/22-сон қарорига
1-илова

T/r	Tuman nomi	Yer maydoni joylashgan mahalla nomi	Yer maydonining dala kontur raqami	Ajratilayotgan yer maydoni (ga)	Yer maydonining “YERELEKTRON” AATda ID raqami
1.	Angor tumani	Novshahar MFY	84q	0,02	Y-1722202/B-13564
2.	Denov tumani	Navbahor MFY	78q	0,02	Y-1722210/B-13603
3.	Denov tumani	Qo‘zichoqli MFY	170q	0,02	Y-1722210/B-13608
4.	Denov tumani	O‘zbekiston MFY	7bq	0,02	Y-1722210/B-13605
5.	Denov tumani	Ko‘kabuloq MFY	125q	0,02	Y-1722210/B-13602
6.	Denov tumani	Gulobod MFY	39q	0,02	Y-1722210/B-13599
7.	Denov tumani	Dunyotepa MFY	542q	0,02	Y-1722210/B-13597
8.	Denov tumani	Buyuk zamin MFY	2q	0,02	Y-1722210/B-13595
9.	Oltinsoy tumani	Barkamol avlod MFY	664q	0,02	Y-1722201/B-13473
10.	Oltinsoy tumani	Qo‘sharcha MFY	201q	0,02	Y-1722201/B-14269
11.	Oltinsoy tumani	Ekraz MFY	95q	0,02	Y-1722201/B-13570
12.	Oltinsoy tumani	Ipok MFY	292q	0,02	Y-1722201/B-13508
13.	Oltinsoy tumani	A.Bo‘tayev MFY	540q	0,02	Y-1722201/B-13481
14.	Sariosiyo tumani	Shirin MFY	210q	0,02	Y-1722217/B-13619
15.	Sariosiyo tumani	Billur MFY	Mahalla hududidan	0,02	Y-1722217/551-13615
16.	Uzun tumani	Guliston MFY	296q	0,02	Y-1722221/B-13487
17.	Uzun tumani	Tomchi MFY	19q	0,02	Y-1722221/B-13486